

SHAHARLARDA ATMASFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNI O'ZIGA XOS JIHATLARI

Normatov Ermamat

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi Atrof-muhit huquqi va barqaror rivojlanish yo'nalishi talabasi normatov1998ermamat@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shaharlarda atmosfera havosini muhofaza qilishni qonuniy jihatlari va atmosfera havosini muhofaza qilishni huquqiy yo'llari tushuntirib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi, atmosfera havosining ustidan nazorat, zararli moddalar, biologik organizm.*

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shuning uchun, atrof-muhit muhofazasi nihoyatda muhim. Yashash uchun tabiatni asrashimiz, tabiiy resurslarni oqilona boshqarishimiz, ulardan tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarur. Shuningdek, bugungi kunda yer sharidagi ko'plab ekotizimlar zaxirasi deyarli butkul tugab, ortga qaytarib bo'lmaydigan darajaga yuz tutgan, boz ustiga aholi nufusi o'sib borayotgan, iqtisodiy taraqqiyotga ehtiyoj kun sayin ortayotgan vaziyatda atrof-muhitni saqlash har qachongidan ham dolzarb vazifa sanaladi. Bundan bilishimiz mumkinki, tabiatning bir qismi bo'lgan shaharlardagi atmosfera havosi kundan kunga yomon ahvolga kelib, fuqarolarning atmosfera havosidan foydalanishga va nafas olishga juda qiynalishmoqda.

Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi sifatida umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Inson suvsiz bir necha kun chidashi mumkin, ovqatsiz hatto bir oy yashay oladi, havosiz esa bir necha daqiqagina yashaydi. Shahar aholi punktlarining atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha barcha muammolaridan atmosfera havosini muhofaza qilish muammosi deyarli eng qiyini bo'lib hisoblanadi. Havoning ifloslanishi turli xil salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu iqlim o'zgarishi va shaharlardagi binolarning barvaqt yemirilishi, va eng jiddiysi, bu inson salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishdir. Shu sababli, shahar aholi punktlarida atmosfera havosining ifloslanishi zarur tashkiliy va huquqiy choralarni ko'rishni talab qiladi¹¹.

Inson salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishi sababli atmosfera havosining ifloslanishi har doim tashvish uyg'otgan. Havoning ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, allergiya va nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi. Aynan shuning uchun biz nafas olayotgan havoning

¹¹ Чолтян Л.Н. Особенности и принципы правовой охраны окружающей среды в городских населённых пунктах // Аграрное и земельное право. – 2008. – №10. – С.111-112.

sifatli bo'lishi juda muhim. Deyarli har bir yirik shahar atmosferasida yuqori miqdorda ifloslantiruvchi moddalar kuzatiladi, ular ekotizim va aholi salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Bundan tashqari, yirik shaharlarda aholining ko'p qismi yashayotganligi va sanoat korxonalarining mavjudligi shaharlardagi hayotning o'gir kechayotganligini bildiradi. Chunki, bunday shaharlarda atmosfera havosining ifloslanish darajasi boshqa joylarga nisbatan yomon ahvolda kechishini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, Urbanizatsiya (shaharlashish) jarayonlarining tezlashishi ham havo ifloslanishining kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugun aholining yarimdan ko'pi shaharlarda yashaydi, shaharlar bir tomondan ko'pincha ifloslanish manbai bo'lsa, boshqa tomondan, aynan shu yerda havo ifloslanishining oqibatlari ayniqsa kuchli seziladi.

Havoning tarkibi vaqt va makonda o'zgarishi mumkin. Buni atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar, ob-havo sharoitlari, shuningdek, geografik joylashuv belgilaydi. Atmosfera havosining sifat va miqdoriy tarkibi shakllanishida ham antropogen, ham tabiiy ifloslanish manbalari katta rol o'ynaydi. Hozirgi kunda yirik shaharlarda ko'plab zaharli moddalar va kimyoviy chiqindilar chiqaradigan ko'plab korxonalar, muassalar va tashkilotlar mavjud. Bundan tashqari, taransportlarni shaharlarda katta miqdorda harakatlanishi atmosfera havosining ifloslanishiga va fuqarolarning qulay tabiiy yashash sharoitiga ega bo'lishini cheklaydi.

Havoning ifloslanishi chegara bilmaydi – bir mamlakatdagi manbadan havoga chiqarilgan tashlanma boshqa, ba'zida esa minglab kilometr naridagi mamlakat hududiga o'tishi va cho'kishi mumkin.

Atmosfera tabiiy tarkibining inson faoliyati natijasida ro'y bergan o'zgarishlari havoning ifloslanishiga olib keladi, ushbu ifloslanish ko'lamini faqat atmosfera havosini monitoring qilish yordamida aniqlash mumkin. Monitoringni tashkil qilish havo sifatini baholash, uning sifatini yaxshilash bo'yicha samarali choralarni rejalashtirish uchun juda muhimdir.

Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi – atmosfera havosi ifloslanishining o'tgan, hozirgi holatini baholash hamda kelajakdagi holatini prognozlash maqsadida ma'lumot beruvchi vaqt va makondagi doimiy uzoq davom etadigan kuzatuvlar tizimidir.

Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi ifloslantiruvchi moddalar mavjudligini qayd etish va ularning anomal kontsentratsiyalarini aniqlash, shuningdek, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish hamda aholi salomatligiga zararli ta'sirni kamaytirish bo'yicha tezkor choralar qabul qilish uchun ifloslantirish manbalarini aniqlashga imkon beradi.

Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi atmosfera havosi holati ustidan ishonchli nazoratni ta'minlab, avariya vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli to'g'risida, odatda ular xavfli moddalarning oz miqdorda ajralib chiqishi, oqib ketishi va yo parlanishidan boshlanadi, oldindan ogohlantirish imkonini beradi. Shtatdan tashqari vaziyatlar yuzaga kelganda haqiqiy holat to'g'risidagi ma'lumot oqibatlarni bartaraf

etish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish hamda aholi va atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish imkonini beradi.

Atrof tabiiy muhit davlat monitoringini amalga oshirish boyicha atmosfera havosini monitoring qilish O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Hidrometeorologiya xizmati markazi (keyingi o'rinlarda "O'zgidromet" markazi deb ataladi) tomonidan amalga oshirilishi belgilab qoyilgan. Unga ko'ra ushbu ikkita davlat tashkiloti atmosfera havosi, yer usti suvlari va tuproq ifloslanishi manbalari monitoringini va atmosfera havosi ifloslanishi, yer usti (tabiiy suv oqimlari) suvlar, tuproq ifloslanishi va fon monitoringini belgilangan nizomlar asosida amalga oshiradi.

O'zgidromet atmosfera havosi ifloslanishi monitoringini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrdagi №737-son "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 25 ta shahardagi 63 ta statsionar kuzatuv punkti (Olmaliq, Angren, Andijon, Bekobod, Buxoro, Guliston, Denov, Qo'qon, Kogon, Qarshi, Marg'ilon, Muborak, Navoiy, Namangan, Nukus, Nurobod, Samarqand, Sariosiyo, Toshkent, Urganch, Farg'ona, Chirchiq, Shaxrisabz, Yangiyo'l)da amalga oshiradi. Kuzatuv punktlarida atmosfera havosidagi 12 ta ifloslantiruvchi modda nazorat qilinadi.

Shaharda atmosfera havosi sifatini monitoring qilish dasturi beshta asosiy ifloslantiruvchi modda: chang (qattiq muallaq zarrachalar), oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi (is gazi), azot dioksidi, azot oksidini o'z ichiga oladi. Sanoat ajratmalari tarkibi va yaqinda joylashgan shaharlar va tutashgan hududlar xususiyatlariga qarab dasturiy o'lchovlarga boshqa moddalar (ammiak, fenol, formal`degid, ozon, xlor, qattiq ftoridlar, ftorli vodorod, og'ir metallar) qo'shiladi. Bu ifloslantiruvchi moddalarning aniqlanishiga sabab ushbu moddalar havoni tez iflos qilish orqali insonlarga va tabiyatning boshqa resurslariga katta zarar etkazadi va buning natijasida turli kasalliklar va boshqa yomon oqibatlarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrdagi №737-son "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Atmosfera havosi ifloslanish manbalari monitoringi bir oyda bir marta, oqova, yer osti va yer usti suvlari monitoringi — yil choragida bir marta, tuproq monitoringi — bir yilda ikki marta (bahorda va kuzda) o'tkaziladi.

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuning 3-moddasida Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari belgilab qoyilgan bo'lib, Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash;

atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.¹²

Hammaga ma'lumki, atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazorat qilish atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar va turli kimyoviy chiqindilarni kamaytirishga va amalga oshirilayotgan islohatlar hamda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning o'z vaqtida amalga oshirilishiga juda katta yordam beradi. Shunga binoan, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunga Atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan davlat ekologik nazorati maxsus vakolatli davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshirilishi keragligi belgilab qoyilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan ekologik nazorat bo'yicha maxsus vakolatli davlat organlar hisoblanadi.

Shaharlarda atmosfera havosini muhofaza qilishni xohlasak, eng avvalo, Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi kerakligini unutmasligimiz kerak. Chunki, javobgarlik belgilanmagan yoki javobgarlikga nisbatan yengilroq jazo belgilansa, Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik buzish darajasi ko'payadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atmosfera havosini muhofaza qilish shahar atrof-muhitini himoya qilish borasidagi muhim hisoblanadi. Shaharlarda atmosfera havosi standartlarga belgilangan talablarga javob bermas, insonlarning salomatligi va ularning huquq va erkinliklarini buzilishiga olib keladi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda sodir bo'layotgan urbanizatsiya jarayonlari aholi va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarning barqaror rivojlanishiga putur yetkazmoqda. Xususan, atmosfera havosi, tuproq, suv ob'ektlari va atrof-muhitning boshqa tarkibiy qismlarining ifloslanishi, aholining ekologik muhitdan ajralishi, aholi sonining ko'payib borishi – shaharlarning ko'payishi oqibati bo'lib, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, bu yirik shaharlarning asosiy kamchiligi hisoblanadi¹³.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarida yashash sharoiti sifatiga ta'sir etuvchi eng muhim tabiiy resurs atmosfera havosi bo'lib, u doimiy ravishda turg'un va ko'chma manbalarning salbiy ta'siriga uchraydi. Shu bilan birga, yirik shaharlarda, mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, atmosfera havosining ifloslanishida transport vositalarining ulushi ustun bo'lib, 70-80% ga yetadi.¹⁴

Shaharlarda atmosfera havosini muhofaza qilishni o'ziga xos jihatlari sifatida ko'rishimiz mumkin bo'lgan asosiy choralar atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi

¹² "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun 3-modda

¹³ Перцик Е.Н. Города мира. География мировой урбанизации. – М.: Международные отношения, 1999. – С. 23.

¹⁴ Uzakova G.Sh. Ochiq va barqaror shaharlarni rivojlantirishning huquqiy masalalari. Monografiya / Mas'ul muharrir: yu.f.d. prof. M.B.Usmonov – Toshkent: TDYU, 2022. 81-bet

tizimini takomillashtirish kerakligi, qonunchilikda atmosfera havosini muhofaza qilish ustidan nazorat qilish organlarining vakolatlarini kuchaytirish lozimligi va bunga qo'shimcha qilib jamoatchilik nazoratini oshirish lozimligini kertitishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Перцик Е.Н. Города мира. География мировой урбанизации. – М.: Международные отношения, 1999. – С. 23.
2. Чолтян Л.Н. Особенности и принципы правовой охраны окружающей среды в городских населённых пунктах // Аграрное и земельное право. – 2008. – №10. – С.111-112.
3. Uzakova G.Sh. Ochiq va barqaror shaharlarni rivojlantirishning huquqiy masalalari. Monografiya / Mas'ul muharrir: yu.f.d. prof. M.B.Usmonov – Toshkent: TDYU, 2022. 29-bet
4. Лисина Н.Л. Принципы правовой охраны окружающей среды в городах // Государство и право. -2019. – №1. – С. 123-135.
5. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun 3-modda
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 5 sentyabrdagi №737-son “O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori